

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to‘g‘risida 2022- yil yakuni uchun

UMUMIY HISOBOT

Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o‘rinlarda matnda Statistika agentligi deb yuritiladi) 2022-yilda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 6- iyuldagi PF-6257-son va PQ-5177-son, 2022- yil 12- yanvardagi PQ-81-son va 2022- yil 11- maydagi PQ-240-son qarorlariga va korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarga asosan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 12- yanvardagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son** qaroriga muvofiq, Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvch hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularni ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish belgilangan bo‘lib, Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan mazkur qarorning tegishli bandlari yuzasidan ishlar o‘z vaqtida va sifatli bajarib kelinmoqda.

Jumladan,

I. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2022- yil 20- aprelga qadar;

II. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan platformaga 2022- yilning 10- oktabr kuniga qadar;

III. 2022-yil yakuni bo‘yicha qilingan ishlar yuzasidan ma‘lumotlar, 2023- yil 10- yanvariga qadar **“E-anticor.uz”** platformasiga ma‘lumotlar joylashtirish muddati belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan belgilangan tartibda ma‘lumotlar markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida tayyorlanib, belgilangan tartibda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining **“E-anticor.uz”** platformasiga joylashtirildi.

Statistika agentligi va hududiy statistika organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari har chorak davomida o‘tkazilib kelinmoqda. 2022- yilda markaziy apparat va hududiy statistika organlarida 200 dan oshiq tadbirlar o‘tkazildi va 500 dan ortiq xodimlar ishtor etishdi.

Siyosat va tartib-taomillar

Statistika agentligining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug‘i bilan (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar, va nizom) tasdiqlangan ichki